

O'QUV DASTURI PASPORTI

Ushbu o'quv dastur Sog'liqni Saqlash vazirligining uzluksiz tibbiy-farmatsevtik ta'lim Koordinatsion kengashining 2024 yil 14 avgust UMO-54 3- sonli protokoli asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2029 yilda tugaydi.

O'quv tashkiloti nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi		
Kafedra/ bo'lim	Shoshilinch tibbiy yordam		
O'quv dasturining nomi	«Operativ diagnostik endoxirurgiya»		
O'qish turi	ixtisoslashtirish		
O'quv dastur mualliflari	Xadjibayev A.M., Alidjanov F.B., Atadjanov Sh.K., Madiyev R.Z.		
Kursning o'qish xajmi	720 kredit		
Kurs o'qituvchilari va trenerlari			
			
Xadjibayev A.M. - professor, tibbiyot fanlari doktori, TXKMRRM Shoshilinch tibbiy yordam kafedrasini mudiri	Alidjanov F.B. – t.f.d., TXKMRRM Shoshilinch tibbiy yordam kafedrasini professori.	Madiyev R.Z. - t.f.n.,TXKMRRM Shoshilinch tibbiy yordam kafedrasini dotsenti	Prof.Xadjibaev F.A. T.f.d. TXKMRRM Shoshilinch tibbiy yordam kafedrasini professori
			
Tulyaganov D.B. TXKMRRM Shoshilinch tibbiy yordam kafedrasini dotsenti.	Atadjanov Sh.K., t.f.d. Shoshilinch tibbiy yordam kafedrasini dotsenti	Akilov B.B. shoshilinch tibbiy yordam kafedrasini assistenti	
Maqsad	Professional kompetensiyasini yangilash asosida, malakaviy tavsiflarga muvofiq ravishda, maxalliy va jahon sog'liqni saqlash tizimidagi yangiliklarni hisobga olgan xolda, shoshilinch xirurgik kasalliklarda, yo'l xarakati xodisalari va favqulotda vaziyatlarda tegishli vazifalarni bajara oladigan mutaxassis – endoxirurg-laporoskopist tayyorlash.		

Kursga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Klinik ordinatura, magistratura va umumiy xirurgiya, torakal xirurgiya va travmatologiya soxasi bo'yicha birlamchi ixtisoslashtirish olganligi haqida tasdiqlovchi xujjatlari bo'lgan umumiy va shoshilinch xirurgiya tizimidagi vrachlar.
Kurs vazifalari	1. Shoshilinch jarrohlikda umumiy xirurgik masalalarni o'zlashtirish 2. Qorin bo'shlig'i a'zolari shikastlanishlari va shoshilinch jarroxlik kasalliklarini erta tashhishlash va yordam ko'nikmalarini o'zlashtirish. 3. Jigar, o't yo'llari tezkor jarrohlik kasalliklarida shoshilinch yordam ko'nikmalarini egallash 4. Gepatobiliaropankreatik sistema jarrohlidida jaroxatlar va tezkor kasalliklarini etiopatogenetik mexanizmlarini bilish va yordam ko'nikmalarini ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lish. 5. O'tkir pankreatit, uning diagnostika va davolashdagi zamonaviy texnologiyalar ko'nikmalarini amalga oshirish 6. Oshqozon va 12 barmokli ichak kasalliklarida qo'llaniladigan tezkor jarroxlik amaliyotlarini jaxon standartlari asosida yordam berish ko'nikmasiga ega bo'lish 7. Kukrak va ko'krak kafasini a'zolarini ochik va yopik jaroxatlarida torakoskopik jarroxlik usullarini egallash 8. Ginekologik kasalliklarda endovideoxirurgik operatsiyalar o'tkazish ko'nikmasini o'zlashtirish.
Kurs tarkibi	MODUL 1. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish Konsepsiyasi. Siklning tashkiliy masalalari. MODUL 2. Operativ diagnostik endoxirurgiyada umumiy xirurgik masalalar. Aseptika va antiseptika Tezkor jarrohlikda og'riqsizlanti rish usullari. Laparoskopik jarroxlik. Rivojlanish tarixi, zamonaviy xolati va tarakkiyoti. Korin bushligi punksiyasi. Videolaporoskop ta'sir burchagi. MODUL 3. Qorin bo'shlig'i a'zolari jaroxatlari va o'tkir jarrohlik kasalliklari. Qorin oldi devori anatomiyasi va uning laparoskopiya operatsiyalarda axamiyati. Jigar, o't yo'li va me'da osti bezining klinik anatomiyasi va fiziologiyasi. Jigar, o't yo'llari va oshqozon osti bezi tezkor jarrohlik kasalliklari. O't-tosh kasalligi va uning asoratlari. Mexanik sariqlik va minvaziv davolash usullari. Yiringli xolangit. Biliar pankreatit, klinikasi, diagnostika va davolash. MODUL 4. Gepatobiliar sistemasi tezkor jarrohlik kasalliklarida klinik - instrumental, radiologik va funksional tekshirish usullari. RXPG, EPST. Unga ko'rsatma va texnikasi. Diagnostik laparoskopiya va laparoskopik operatsiyalar paytidagi asoratlar. MODUL 5. Jigardan tashkari ut yullari laparoskopik operatsiyalari. Topografo-anatomik asoslash. Asbob-uskunalar.

	Operatsiya texnikasi. Intraoperatsion xolangiografiya. O't qopi yo'li va umumiy o't yo'lini drenajlash. asoratlari. MODUL 6. O'tkir pankreatit, uning diagnostikasi va davolashdagi zamonaviy texnologiyalar. Laparoskopik operatsiyaga ko'rsatma. Laparoskopik operatsiya usullari va texnikasi. MODUL 7. Oshqozon va 12 barmokli ichak yarasi va ularning asoratlari. Oshqozon va 12 barmokli ichak xirurgik anatomiyasi, fiziologiyasi. Oshqozon va 12 barmokli ichak yara kasalligi klinikasi, diagnostikasi va maxsus-zamonaviy tekshirish usullari. Laparoskopik appendektomiya. Operatsiya texnikasi. Asoratlari. MODUL 8. Korin bo'shlig'i a'zolarini ochik va yopik shikastlanishlari. Klinik - instrumental tekshiruvlar. Zamonaviy diagnostika texnologiyalar ning roli va ahamiyati: ultratovush, rentgen va MSKT tekshiruvlar. Diagnostik laparoskopiyaga ko'rsatma- lar. MODUL 9. Laparoskopik gemostaz usullari. Mezenterial qon aylaninishining o'tkir buzilishi, ichak tomirlari trombozi. Endovideoxirurgik diagnos tika va davolash ishlarini olib borish imkoniyati. MODUL 10. O'tkir peritonit va uning zamonaviy davolash usullari. Laparoskopiyani diagnostika va davolashda ahamiyati. MODUL 11. Yo'g'on ichakda laparoskopik operatsiyalar. Ko'rsatma va qarshi ko'rsatma. Operatsiya texnikasi va asbob-uskunalar. Asoratlari va uning profilaktikasi. Laparoskopik operatsiyadan so'nggi umumiy va spetsifik asoratlar, uning profilaktikasi va diagnostikasi. MODUL 12. Ginekologik kasalliklarda endovideoxirurgik operatsiyalar (tuxumdon kistasida, bepustlikda, subseroz bachadon miomasida, adenomiozda, endometrioza, bachadon tushishida, bachadondan tashqi xomilada). MODUL 13. Urologiyada endovideoxirurg gik operatsiyalar (urug kanatiki venalari varikoz kengayishida, buyrak kistasi va o'smalarida, nefroptoza, buyrak usti xavfsiz kasalliklarida, siydik-tosh kasalligida). MODUL 14. Ko'krak va ko'krak qafasini a'zolarini ochiq va yopiq jaroxatlari. Klinika, zamonaviy diagnostika usullari. Torakoskopiyaga ko'rsatmalar va jarroxlik usullari.
--	--

O'qish bazalari

1. Respublika
shoshilinch tibbiy
yordam ilmiy
markazi



Simulyasion asbob/uskunalar

